



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi

Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi

talabasi Shomuradova Kamolaning

Ona tili va uni o`qitish metodikasi fanidan

« 3-sinf ona tili darslarida so`z tarkibini o`rganish metodikasi»

mavzusida tayyorlagan

REFERATI

Navoiy – 2013-yil

Mundarija.

KIRISH

1. 3-sinf ona tili darslarida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning metodik ahamiyati
2. 3-sinf ona tili darslarida soʻz yasalishi ustida ishlash
3. 3-sinf ona tili darslarida soʻz tarkibini oʻrganishda dars samaradorligini oshirish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

KIRISH

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalash ishiga alohida e'tibor bilan qarab kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh yo'nalishi – davlat, jamiyat va oila oldidagi mas'uliyatni anglab yetadigan, mustaqil firlay oladigan, o'z fikr mulohazalarini himoya qiladigan ozod shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir."¹

Maktabda grammatik materialni o'rganish amaliy yo'nalishga ega bo'lgani va birinchi navbatda, o'quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o'quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya'ni so'zlarni yozish, gap tuzish, so'zni tahlil qilishda foydalanishga o'rgatish ham muhimdir.

O'qituvchi tilni o'rgatish vazifalarini hisobga olib, doimo o'quvchilarning nutqiy tajribasiga suyanadi va til kategoriyalarining bog'liqligi haqidagi bilimlarni tajribaga tatbiq etish jarayoniga yo'naltiradi. Bilim komponentlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash bilimni tajribaga, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiga tatbiq etish imkonini beradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida bilimlarning izchilligi qanday ta'minlanadi? Avvalo, maktab dasturi lingvistik materialni o'rganishda yangi o'rganiladigan materialning ilgari o'rganilganlar bilan ilmiy asoslangan bog'lanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni ko'zda tutadi.

O'qituvchi bu bog'lanishning mohiyatini metodik jihatdan aniq ko'z oldiga keltirishi zarur. O'zaro bog'liq bo'lgan til hodisalarini ketma-ket va parallel o'rganish mumkin. Bularning qaysi biridan foydalanish ma'qulroq degan masala ko'proq materialning lingvistik mohiyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Masalan, kishilik olmoshlari fe'ldan oldin o'rganiladi, bu fe'lning shaxs-sonda tuslanishini kishilik olmoshlariga bog'lab o'rganish imkonini beradi. O'qituvchi yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'rganilganlar bilan bog'laydi. Buning uchun til

¹ I.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" Toshkent. "O'zbekiston" 2000 - yil 260-bet.

tushunchalarini taqqoslaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rganishda ular so'z yasovchi qo'shimchalar bilan taqqoslanadi (so'z yasovchi qo'shimcha yangi so'z hosil qilish uchun xizmat qilsa, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha so'zning shaklini o'zgartirish uchun, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi aniqlanadi).

O'quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o'qituvchi bu tartibga rioya qilib so'zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi.

So'z turkumiga ko'ra tahlil og'zaki va yozma tarzda o'tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To'liq bo'lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi.

1. 3-sinf ona tili darslarida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning metodik ahamiyati

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili oʻqitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989 yil 21 oktyabrda «Oʻzbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida»gi qaror alohida oʻrin tutadi.

Taʼlim sohasidagi bu oʻzgarishlar ona tili oʻqitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bu yangiliklardan koʻplari maktablarda amaliyotga tatbiq qilinmoqda, baʼzilari hozircha sinovdan oʻtkazilmoqda.

SHunday qilib, fan sifatida ona tili oʻqitish metodikasining oʻz predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi boʻlib, bir qator fanlar oʻrtasida uning maʼlum oʻrni bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Keyinchalik 1931 yil 5-sentyabrda qabul qilingan “Boshlangʻich va oʻrta maktab haqida”gi, 1932 yil 25-avgust qabul qilingan «Boshlangʻich va oʻrta maktab oʻquv dasturlari rejimi haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yoʻl qoʻyilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va oʻquv mashgʻulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va oʻqituvchilarga yordam berdi. Oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – oʻquvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyidagi koʻrsatilgan omillar tilni oʻrgatish bilan bogʻliq holda oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

Mustaqillgimizning dastlabki yillaridanoq butun mamalakat miqyosida talim tarbiya, ilm -fan, kasb hunar oʻrgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshlandi. Busiz jamiyatimizning biror bir sohasini oʻzgartirishga erishib boʻlmaydi.²

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlangʻich sinflarda

² Karimov I.A. “Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz” Toshkent “Oʻzbekiston” 1999 y 412 bet

tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasaliishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarini o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. SHubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda «So'zning tarkibi» bo'limi katta imkoniyatga ega. O'quvchilar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasaliishi bilan tanishadilar. Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: *limon* tipida *limonzor*, *suvchi* tipida *bo'zchi* kabi. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: *ishli*, *ishsiz*, *ishchi* kabi.

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan xarakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi.

O'tgan asrning 50-70-yillari mobaynida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillarda ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi.

1955 yildan boshlab pedagogika institutlari qoshida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlanadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan.

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Boshlang'ich sinflarnig ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli qarorida umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat qilib belgilandi:

1. Boshlang'ich ta'lim.
2. Umumiy o'rta ta'lim.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'limning standarti yaratildi. Unda boshlang'ich bosqich va umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi.

Hozirda o'quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ona tili o'quv fani sifatida shakllanib, rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tmoqda.

Dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan

hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari «topgan» yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materialini mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy me'zoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

SHunday qilib, tilni o'rganish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan.

O'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap grammatik tomondan koʻpgina xususiyatlarga ega. Soʻzning oʻz morfemik qurilishi, oʻzining soʻz yasallish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), maʼlum sintaktik vazifasi bor. Soʻz birikmasi ham soʻz kabi soʻz oʻzgarishi (koʻproq ergash soʻz oʻzgaradi) shakllariga ega. Gap oʻz qurilishiga koʻra soʻzdan sifat jihatdan farqlanadi: soʻz oʻzi alohida kelganda mustaqil maʼno anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik maʼno bildiradi, gap tarkibida esa uning maʼnosi yana oydinlashadi. Gap va soʻz birikmasi “qurilish material” sifatida xilma-xil tuzilgan soʻzdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

SHunday qilib, tilning har bir jihatining oʻziga xos xususiyatini koʻrib chiqishning oʻzi ularning oʻzaro munosabatini, bir-biriga oʻtishining murakkabligini taʼkidlaydi. Tilshunoslik fani boʻlimlari oʻrtasidagi munosabatlar ham shunga oʻxshash murakkabdir.

Soʻz uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli boʻlib, bunga soʻzning leksik maʼnosi va qator grammatik belgilari bogʻliq boʻladi. Yangi soʻz qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va oʻzining leksik maʼnosiga ega boʻladi. Har bir soʻz turkumida soʻz yasallishining xarakterli xususiyatlari mavjud. Soʻzning morfemik tarkibi va yangi soʻz yasallish usullari tilshunoslik fanining soʻz yasallishi boʻlimida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda oʻrganiladi.

Oʻquvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari boʻlgan soʻz, morfema, soʻz birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli oʻzlashtiradilar. Soʻzga lingvistik munosabat soʻzni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni oʻrtasidagi bogʻlanishini aniqlash, soʻzni morfemik tahlil qilish va soʻzga leksik maʼno berishda morfemaning oʻrnini tushunish; soʻzni grammatik tahlil qilish va shu soʻzning muayyan soʻz turkumiga oid ekani bilan uning grammatik belgilari oʻzaro bogʻliqligini tushunish koʻnikmasining shakllanishiga qarab oʻsib boradi.

Masalan, III sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmalarini topadilar, ammo u so'z birikmasidagi so'zlar o'zaro qanday, ya'ni nimalar yordamida bog'langanini tushuntira olmaydilar. IV sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmasini topadilar va so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar (kelishik, shaxs-son qo'shimchalari) yoki ohang yordamida bog'langanini tushuntiradilar, ya'ni bog'lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko'rsatadilar. Bu so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish mohiyatini elementar darajada tushunish bo'lib, uni yuqori sinflarda chuqurroq (so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish turlari, bosh va ergash so'zning xususiyatlarini) tushunadilar.

Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi 5 ta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" [alqoro biznes maktabining 2012 yilgi innovatsiyalarning global indeksi] maruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli deb o'ylayman. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha esa O'zbekiston dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan. ³

O'qituvchi o'quvchilarda so'zga, so'z birikmasi va gapga lingvistik munosabatni ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq o'stirib boradi, xususan, o'rganiladigan kategoriyani o'quvchi tushunib olishiga g'amxo'rlik qiladi.

³ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy daturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19 yanvar 2013 yil 13 son 2 bet.

2. 3-sinf ona tili darslarida so'z yasalishi ustida ishlash

Morfemalarning qo'shilishi bir-biriga ta'sir qiladi, bundan tashqari, ko'pgina o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalar ko'p ma'noli. SHunga qaramay, ko'p so'zlarning leksik ma'nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so'zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasalishini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so'zlarning leksik ma'nosini so'zlarning semantik o'xshashligiga qarab bilib oladilar.

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega.

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi. Morfema ikki turga bo'linadi:

1. O'zak morfema – so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema.

2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va grammatik ma'nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, *gullarni*, *gulla* so'zlaridagi *gul* – o'zak morfema, *-lar*, *-ni*, *-la* affiksal morfemadir.

Affikslar (qo'shimchalar) ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar. Ular so'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *bog'bon*, *paxtakor*, *gulzor*, *ishchi* so'zlaridagi *-bon*, *-kor*, *-zor*, *-chi* so'z yasovchi affikslardir.

2. SHakl yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalar so'zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, *maktablarimizni* so'zida *-lar*, *-imiz*, *-ni* shakl yasovchi qo'shimchalar bo'lib, *-lar* ko'plik ma'nosini, *-imiz* egalikning I shaxs ko'plik ma'nosini, *-ni* tushum kelishigi ma'nosini ifodalaydi.

So'zlarning morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyati va shunga mos ravishda o'qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Soʻzning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilar soʻzlarning leksik maʼnosi va morfemik tarkibi bir-biriga bogʻliqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lugʻatiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

2. Soʻz yasalishi haqidagi elementar bilim ham oʻquvchilarning tilimizning yangi soʻzlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi soʻz tilda mavjud boʻlgan morfemalardan, maʼlum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). Soʻz yasalishini kuzatish oʻquvchilarda soʻzga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy taʼsir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi.

3. Soʻz yasalishi asoslari bilan tanishish oʻquvchilar lugʻatini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar soʻz bilan ifodalanadi. Soʻzlar oʻrtasidagi maʼno va tuzilish jihatidan bogʻlanishni belgilash oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar oʻrtasidagi bogʻlanishga tayanadi (masalan, *traktor* va *traktorchi* soʻzlari oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar, shu tufayli maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlangan). Oʻquvchilar soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra oʻzaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof-muhitda mavjud boʻlgan predmetlar, jarayonlar, voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.

4. Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qoʻshimchalarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning soʻzning leksik maʼnosini tushunibgina qolmay, kontekstda aniq qoʻshimchali soʻzlardan ongli foydalanishlarini ham oʻrgatish hisoblanadi.

5. Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fonetik tamoyil yangi oʻzbek imlosining yetakchi tamoyili boʻlib, bunga binoan soʻzlar va ularning tarkibiy qismi (oʻzak va qoʻshimchalar) koʻproq talaffuziga muvofiq yoziladi. Oʻzak va

qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, so'z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. SHuning uchun so'zning morfemik tarkibini o'rganishning muhim vazifalaridan biri o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

6. So'zning morfemik tarkibini o'rganish o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, xususan, til birligi sifatida so'zni ongli bilib olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarda aqliy faoliyatni o'stiradigan, analiz, taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

2. 3-sinf ona tili darslarida soʻz tarkibini oʻrganishda dars samaradorligini oshirish

Boshlangʻich sinflar ona tili dasturiga muvofiq soʻzning morfemik tarkibi III sinfda oʻrganiladi. IV sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi.

Avvalo, til materialini oʻrganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur.

Til materialini oʻrganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzaro bogʻlanishdagi bilimlar yigʻindisini oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy koʻnikmalarni shakllantirish tushuniladi. Soʻzning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim soʻz yasallishiga oid va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish: a) dastur materialini oʻrganish tizimida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning oʻrni bilan; 2) “oʻzak”, “oʻzakdosh soʻz”, “soʻz yasovchi qoʻshimcha”, “shakl yasovchi qoʻshimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasallishining oʻzaro bir-biriga taʼsir qilishi bilan; 4) morfemalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bogʻliqligini belgilab beradi.

Mavzuni oʻrganishda toʻrt bosqich ajratiladi:

BIRINCHI BOSQICH – soʻz yasallishini oʻrganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – oʻquvchilarni bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qoʻyilishiga sabab, birinchidan, soʻzning maʼno va tuzilishi jihatidan bogʻlanishini tushunish, oʻzining lingvistik mohiyatiga koʻra, bir xil oʻzakli soʻzlarni va soʻz yasallishini oʻzlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos boʻlgan soʻzlar bir-biri bilan maʼno va tuzilishi jihatidan bogʻlanadi: *ish* – *ishchi*, *gʻalla* – *gʻallakor*. Ikkinchidan, oʻquvchilar bir xil oʻzakli soʻzlarni va morfemalarni oʻrganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladilar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan boʻladi; oʻzak, soʻz yasovchi va shakl

yasovchi qo'shimchalarning vazifalarini o'zlashtirishda ularga bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishi jihatidan o'xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. SHuning uchun so'zning morfemik tarkibini maxsus o'rganishdan oldin uning ma'no va tarkibiga ko'ra yaqinligi kuzatiladi.

I sinfda kuzatish o'rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so'zlarning ma'nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog'lanadi. I sinfda *kim?*, *nima?* So'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning "*Nima uchun u yoki bu narsa shunday nomlangan?*" savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o'zakli so'zlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar "*Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?*", "*Bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'ldi?*" savollariga javob berishga tayyorlanadilar.

Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. SHuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. Masalan, "*Nega kishilar paxta ko'p ekilgan joyni paxtazor (**paxta – paxtazor**), daraxt ko'p ekilgan joyni daraxtzor (**daraxt – daraxtzor**) deb nomlashgan?*", "*Nega kishilar bir uyni g'ishtli (**g'isht – g'ishtli**), boshqasini **sinchli** deyishadi?*"

O'quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so'zlarning ma'nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning yasaliishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir so'z boshqa so'zdan o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishi asosida yasaliishini, o'z navbatida, shu so'z bilan nomlangan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so'z yasaliishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

IKKINCHI BOSQICH – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi

– soʻzlarning maʼnoli qismlari sifatida oʻzak, soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar bilan tanishtirish, “oʻzakdosh soʻzlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil oʻzakli soʻzlarda oʻzakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

“Oʻzakdosh soʻzlar” tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, yaʼni mazmuniy umumiylikni (maʼnosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga koʻra umumiylikni (umumiy oʻzak mavjudligini) oʻzlashtirish bilan bogʻlanadi. SHuning uchun bu belgilarni oʻquvchilar oʻzlashtirishiga taʼlim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu oʻquvchilarda bir xil oʻzakli soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlash koʻnikmasini rivojlantiradi. Masalan, oʻquvchilar *gul*, *gulzor*, *gulli* (koʻylak), *gulladi* soʻzlarini taqqoslaydilar, bu toʻrt soʻz maʼnosiga koʻra oʻxshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun ularni bitta oʻzakdosh soʻzlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

Bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnolaridagi umumiylik oʻzakning umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qoʻshimchalar esa soʻzning maʼnosiga oʻziga xos maʼno qoʻshadi; ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil oʻzakli soʻzlar ustida bunday ishlash usuli oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini soʻzning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi. Masalan, oʻqituvchi *kombayn* rasmini koʻrsatadi va «*Kombaynni boshqaradigan kishi nima deb nomlanadi?*» savolini beradi. Javob xattaxtaga yoziladi: *kombayn* – *kombaynchi*. Tushunchalarni taqqoslab kuzatish quyidagi aniq til materialini yaratish imkonini beradi, uni tahlil qilish jarayonida bir xil oʻzakli soʻzlarning xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi: Avval soʻzlarni maʼno va tarkibiga koʻra taqqoslash asosida “oʻzakdosh soʻzlar” atamasi beriladi, keyin oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi oʻzak deyilishi, oʻzakdosh soʻzlarni, boshqacha qilib, bir xil oʻzakli soʻzlar (yaʼni oʻzakdosh soʻzlar) deb nomlanishi ham tushuntiriladi.

Oʻquvchilarda bir xil oʻzakli soʻzlarni ikki muhim belgisiga koʻra aniqlash koʻnikmasini oʻstirish uchun oʻzakdosh soʻzlar yaqin maʼnoli – sinonim soʻzlar bilan, shakli oʻxshash boʻlgan soʻzlar bilan taqqoslanadi. Masalan, oʻquvchilar

baxtli – *baxtsiz* o'zakkdosh so'zlari bilan *baxtli* – *saodatli* sinonim so'zlarini taqqoslab, o'zakkdosh so'zlar ham, sinonim so'zlar ham yaqin ma'no bildirishini (o'xshash tomonini), o'zakkdosh so'zlarda umumiy qism (*baxt*) mavjud bo'lib, sinonim so'zlarda bunday umumiy qism yo'qligini (farqli tomonini) aniqlaydilar, ular *bog'* – *bog'bon* o'zakkdosh so'zlari bilan *suv* – *suva* so'zlarini taqqoslab, quyidagi xulosaga keladilar: *bog'* – *bog'bon* o'zakkdosh so'zlar hisoblanadi, chunki bular yaqin ma'noli va umumiy qismi bor; *suv* – *suva* so'zlari shakli tomonidangina o'xshaydi, ammo butunlay boshqa ma'noni bildiradi. Bunday mashqlar o'quvchilarni o'zakkdosh so'zlarni yaqin ma'noli sinonim so'zlardan, bir-biriga o'xshash bo'lgan so'zlardan farqlashga o'rgatadi.

Bir xil o'zakli so'zlar turli so'z turkumiga oid bo'ladi. SHuning uchun bir xil o'zakli so'zlarni o'rganishning bu bosqichida o'quvchilar diqqati o'zakkdosh so'zlar shaxs, narsa, uning harakati va belgisini bildirishiga qaratiladi. SHu maqsadda turli so'z turkumiga oid bir xil o'zakli so'zlar mavjud bo'lgan matnni tahlil qilib, o'zakkdosh so'zlarni aniqlash, shuningdek, *kim?*, *nima?*, *qanday?*, *nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'ladigan bir xil o'zakli so'zlar tanlash mashqlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda so'zlarni ma'nosi va tarkibiga ko'ra taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash shart. O'quvchilar u yoki bu so'z nima uchun o'zakkdosh ekanini isbotlaganlarida, ularning ikki muhim belgisini aytsinlar. Masalan, *gul*, *gulladi*, *gulli*, *guldor*, *gulzor* o'zakkdosh so'zlar hisoblanadi, chunki bularda umumiy qism – *gul* mavjud, bu so'zlar yaqin ma'noni bildiriyapti.

Bir xil o'zakli so'zlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zakning har vaqt bir xil yozilishini kuzatadilar. Bunday kuzatish o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar bo'lgan so'zlarni anglab, to'g'ri yozishga asos bo'ladi.

Bir xil o'zakli so'zlar bilan tanishish jarayonida o'quvchilarda so'zning ma'noli qismi bo'lgan morfemalar (o'zak, so'z yasovchi, shakl yasovchilar) haqida boshlang'ich tasavvur hosil bo'ladi. Buning uchun so'z yasashga oid vazifa topshirish maqsadga muvofiq. Bu vazifani bajarishda o'quvchilar morfemalardan foydalanib bir xil o'zakli so'zlar guruhini hosil qiladilar va morfemalarning o'rni

hamda vazifasi haqida tasavvur hosil qiladilar. Masalan, o'qituvchi *gul* so'zini yozish va unga *gul* ko'p ekilgan joyni bildiradigan o'zakdosh so'z tanlashni topshiradi. O'quvchilar *gul*, *gulzor* so'zlarini yozadilar. *Gulzor* so'zini hosil qilish uchun *-zor* qismi qo'shilgani aniqlanadi. O'qituvchi "*Gul parvarish qilish bilan shug'ullanadigan kishini nima deb nomlaymiz?*" savolini beradi. O'quvchilar *gulchi* so'zini aytadilar; bu so'z ***gul*** so'ziga *-chi* qismini qo'shish bilan hosil qilingani (yasalgani) aniqlanadi. So'zlardagi *-zor*, *-chi* qismlarining ahamiyatini taqqoslash asosida boshlang'ich bilimlar umumlashtiriladi, *so'z yasovchi qo'shimcha* atamasi beriladi.

SHakl yasovchi qo'shimcha bilan elementar tanishtirish uchun *daftar* va *daftarlar* so'zlarini ma'no va shakl tomondan taqqoslash topshiriladi. Suhbat asosida o'quvchilar ma'noning o'zgarmaganini, shakli o'zgarganini (*-lar* qo'shilganini) aniqlaydilar.

Ta'limning bu bosqichida o'quvchilarning morfema haqidagi bilimlari yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. SHuning uchun o'qituvchi tarkibi va yasash usuli o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo'lgan so'zlarni tanlaydi, bu so'zlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni o'quvchilarning bilib olishlariga doimiy g'amxo'rlik qiladi.

UCHINCHI BOSQICH – o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga "o'zak", "so'z yasovchi qo'shimcha", "shakl yasovchi qo'shimcha" tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi.

Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi. Masalan, so'zda har bir morfemaning ahamiyatini o'zlashtirish asosida o'quvchilar

so'zning leksik ma'nosi bilan uning morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan uzviy bog'liq holda, so'zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O'zakni o'rganishning xususiyatlari. "O'zak" tushunchasini shakllantirishda o'quvchilar o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o'zakli so'zlarning ma'nosidagi umumiylikni o'z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

O'zakdosh so'zlarni tahlil qilish bilan o'quvchilar so'zning qaysi qismi shu so'zlardan o'zakdosh so'zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular o'zakni ajratadilar), qaysi qismi har xil ma'noli so'zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular so'z yasovchi qo'shimchalarni ajratadilar) o'rgatiladi. Bunday vazifalarni to'g'ri bajarish natijasida o'quvchilar o'zak va so'z yasovchi qo'shimchaning so'zning leksik ma'nosini hosil qilishdagi rolini elementar tarzda bo'lsa ham tushunadilar, shuningdek, o'zak o'zakdosh so'zlarga asos bo'ladigan qism ekanini bilib oladilar.

O'zak ustida ishlash bu bilan tugamaydi, balki boshqa morfemalarni maxsus o'rganishga ajratilgan darslar mazmuni bilan va keyinroq so'z turkumlari *o'rganilganda*, so'z yasashga doir mashqlar bilan ham uzviy bog'lanadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash. Bu morfemani o'rganishning asosiy vazifasi o'quvchilarni so'zda so'z yasovchi qo'shimchaning ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda so'z yasovchi qo'shimchali so'zdan o'z nutqida ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasash mumkinligini tushunishi muhim ahamiyatga ega.

So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash ba'zi so'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosini va yasama so'zning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So'z yasovchi qo'shimchaning ma'nosini tushuntirish uning so'z yasashdagi ahamiyatini o'quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e'tibori so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasalishiga qaratiladi. Masalan: *ish – ishchi, ishli, ishchan, ishla*).

Yasalgan soʻz qaysi soʻz turkumiga kirishini aniqlash soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida har xil soʻz turkumiga oid soʻzlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchani ongli oʻzlashtirish uchun quyidagi mashqlar guruhidan foydalanish yaxshi natija beradi:

Birinchi guruh mashqlarga har xil soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish bilan hosil boʻlgan bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼno jihatdan farqini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Masalan, *gul soʻzidan -chi, -zor soʻz yasovchi qoʻshimchalari bilan yangi soʻz yasang. Hosil boʻlgan soʻzlarni maʼnosi va tarkibiga koʻra qiyoslang. Ularda nima oʻxshash? Soʻzning qaysi qismi ularni maʼnosiga koʻra farqlayapti? Yangi soʻzlarni qatnashtirib gap tuzing.*

Ikkinchi guruh mashqlarga bir soʻz yasovchi qoʻshimchani har xil soʻzlarga qoʻshishdan hosil boʻlgan soʻzlarda soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Bunday mashqlarning maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosi haqidagi bilimni elementar tarzda umumlashtirish hisoblanadi. Masalan, **ishchi, suvchi, gulchi** soʻzlarini taqqoslash, *maʼnosiga koʻra oʻxshash tomonini belgilash* (biror ishni, vazifani bajaradigan kishini – shaxsni bildiradi), *soʻzning qaysi qismi bajaruvchi shaxs maʼnosini bildirayotganligini aniqlash* (soʻz yasovchi qoʻshimcha -chi).

Uchinchi guruh mashqlarga matnni leksik-grammatik va leksik-stilistik tahlil qilishga oid vazifalar kiradi. Masalan, matndan oʻzakdosh soʻzlarni topish, ularning maʼnosidagi farqni aytish, bu farq soʻzning qaysi qismi yordamida berilayotganini aniqlash; berilgan soʻzlardan namunadagidek gap tuzish (masalan, *Soatsoz soatni tuzatdi. Traktorch yerni traktor bilan haydaydi*); oʻzakdosh soʻzlarni aniqlash va tarkibiga koʻra tahlil qilish va h.k.

SHakl yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida oʻziga xoslik boʻlib, uni oʻrganish metodikasi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. SHakl yasovchi qoʻshimchada grammatik vazifa yetakchi hisoblanadi, bu bilan u soʻz yasovchi qoʻshimchadan farqlanadi.

SHakl yasovchi qo'shimcha so'zning grammatik ma'nosini ifodalovchi vosita hisoblanadi. O'quvchilar so'zning grammatik ma'nosini bilmay turib shakl yasovchi qo'shimchaning vazifasini ham anglab yetmaydilar. Bundan tashqari, shakl yasovchi qo'shimcha bir necha ma'no ifodalaydi (masalan, *kitobni o'qidim* so'z birikmasidagi *-m* I shaxs birlik ma'nosini bildiradi).

SHakl yasovchi qo'shimchani o'rgatishda uning mana shu xususiyatlari hisobga olinadi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uning ikki belgisi bilan (so'z shaklini o'zgartirishi va gapda so'zlarni bir-biriga bog'lashi bilan) amaliy tanishtiriladi. O'quvchilar otlarda birlik va ko'plik, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, otlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi, fe'llarda shaxs-son, zamonni (IV sinf) o'rganishlari bilan bog'liq holda ularning shakl yasovchi qo'shimcha haqidagi bilimlari asta-sekin chuqurlashtirila boriladi.

O'quvchilarda gapda so'zlar shakl yasovchi qo'shimcha yordamida bog'lanishi haqidagi dastlabki tasavvur mashqlarni bajarish jarayonida hosil qilinadi. Masalan, gapning mazmuniga mos ravishda ajratib berilgan so'zning shaklini so'roqlardan foydalanib o'zgartirish va u so'z gapdagi qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlash so'raladi: *O'quvchi* (nimani?) *kitob... sevadi. U* (nimadan?) *kitob... yaxshi foydalanadi?* O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida "*So'zning shaklini nima uchun o'zgartirishga to'g'ri keldi? So'z shaklini o'zgartirish bilan nimaga erishildi?*" savollariga javob beradilar.

O'quvchilar shakl yasovchi qo'shimchalarning sintaktik vazifasini gapda so'zlarning bog'lanishi va so'z birikmasini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtiradilar. O'quvchilarning so'zlarning bog'lanishi haqidagi bilimi elementar xarakterda bo'lsa ham, ularning so'z birikmasidagi so'zlar ma'no va grammatik jihatdan shakl yasovchi qo'shimchalar yordamida bog'lanishini tushunishiga erishiladi. O'quvchilar ot va kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rganganlaridan so'ng gapda ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan so'zlarni ajrata olish va nimalar yordamida bog'langanini tushuntirish

ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin, so'ngra shakl yasovchi qo'shimchalarning sintaktik vazifasini o'zlashtira boshlaydilar.

O'quvchilar har bir morfemaning vazifasini boshqa morfemalar bilan qiyoslab ko'rsatish talab qilingan vazifani bajarish jarayonida shakl yasovchi qo'shimchaning o'ziga xos xususiyatini yaxshi o'zlashtiradilar. Masalan, o'zakdosh so'zlar tanlash vazifasini bajarish davomida so'z yasash uchun qanday morfemalardan foydalanilgani, so'z yasovchi qo'shimcha tufayli so'zning ma'nosi qanday o'zgargani aniqlanadi. SHundan so'ng o'quvchilarga "Otni shunday o'zgartiringki, u birlikni emas, ko'plikni bildirsin" topshirig'i beriladi. Bolalar bu vazifani bajarib, otga shakl yasovchi ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, so'zning leksik ma'nosi o'zgarmaganini, faqat shakli o'zgarganini, ko'plik bildirganini aytadilar. So'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimchalarni taqqoslash orqali o'quvchilar shakl yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'zgartirishdagi o'rnini yaqqol ko'radilar.

TO'RTINCHI BOSQICH – so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash (III-sinf). So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning so'z yasashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'zgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasaliş xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z yasaliş asoslarini, so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan (*ishchi, baliqchi; sinfdosh, sirdosh; bog'bon, oshpaz, kitobxon, zargar*), shuningdek, fe'ldan (*elak, kurak, yutuq, o'roq, yotoq, terim, bilim*); sifat ko'proq otdan (*suvli, suvsiz; yozgi, qishki, ishchan, ishli, ishsiz*), shuningdek, fe'ldan (*maqtanchoq, o'tkir, sezgir*); fe'llar otdan (*ishla, gulla, gapir*), sifatdan (*oqla, yaxshila, oqar, qoray*) yasaladi.

O'quvchilarni so'z yasaliş xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema

yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi *chegara* otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (*chegarachi*). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'quvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, *baliq* so'zidan *-chi* qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash (*baliqchi*), uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday ma'no anglatishi va qaysi so'z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Bunday mashq turlaridan namunalar:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik – so'z yasalishi tomonidan tahlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn diktovka bilan yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi.

O'qituvchi rahbarligida bir o'zakdosh so'zdan boshqasi qanday morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zga o'zakdosh bo'lgan bir so'z toping. Uning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va uni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

– **Olma** daraxti ko'p joy (*Olmazor*)

– **Paxta** yetishtirish bilan shug'ullanadigan kishi (*Paxtakor*)

– **Bog'** yaratadigan va uni parvarish qiladigan kishi (*Bog'bon*)

– **Traktor** bilan ish bajaradigan kishi (*Traktorch*)

– **Gul** solib qo'yiladigan idish (*Guldon*)

O'quvchilar o'qituvchi yordamida shu so'z qaysi so'zdan va qanday qo'shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so'z turkumiga kiradigan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So'z yasashga doir vazifalar:

– *Oq, ish* so'zlaridan *-la, -chi* qo'shimchalari yordamida yangi so'zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va fikringizni asoslang.

– *Ish, paxta, suv* otlaridan o'zakdosh otlar yasang. So'zlarni tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz so'zning qaysi qismidan foydalandingiz?

– *CHiz, o'r* fe'llaridan o'zakdosh otlar yasang. Otlarni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Fe'ldan ot yasash uchun qanday qo'shimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar o'quvchilardan so'z yasalishi xususiyatlariga, so'zlarning morfemik tarkibiga e'tibor berishni talab etadi va so'zning morfemik tarkibi shu so'zning muayyan bir so'z turkumiga oid ekani bilan bog'liqligini aniqlashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda u yoki bu so'z turkumining yasalishini kuzatish propedevtik xarakterda bo'ladi, uning natijasi mashqning mavzuni o'zlashtirish maqsadiga qaratilishi, darsda faol va individual ishlarni to'g'ri uyushtirish, foydalanilgan leksik materialning o'quvchilar saviyasiga mosligi va ko'rgazmalilikka bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilarning biror morfemani qay darajada o'zlashtirganini ularning morfemik tarkibi bolalar saviyasiga mos so'zlardagi morfemalarni ajratish ko'nikmasiga, o'zak va shakl yasovchi qo'shimchadan yo o'zak va so'z yasovchidan, yoki o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchidan tuzilgan so'zlarni mustaqil tanlay bilishiga, so'zdagi morfemalarning rolini so'z bilan tushuntirish ko'nikmasiga, gapda so'z yasovchi qo'shimchali so'zlarni to'g'ri ishlatish ko'nikmasiga qarab aniqlaydi.

Quyidagicha savol va topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilar so'zning morfemik tarkibini qanday o'zlashtirganini aniqlash mumkin:

I. Savollarga javob berish:

1. Soʻzda qaysi qism eng asosiy hisoblanadi? Nima uchun?
2. Soʻz yasovchi qoʻshimcha qanday vazifani bajaradi? Misol bilan isbotlang.
3. Soʻzda shakl yasovchi qoʻshimcha nima uchun xizmat qiladi? Isbotlang.

II. Ikki soʻzning maʼnosi va tarkibini taqqoslash. Buning uchun oʻquvchilar oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarning semantik ahamiyatini qanchalik tushunganini aniqlashga imkon beradigan soʻzlar tanlanadi (*ishladi* va *boshladi*, *paxtakor* va *paxtazor*).

III. Soʻzlarni taqqoslab, oʻzakdosh yoki oʻzakdosh emasligini isbotlash (*tuz*, *tuzdon*, *tuzli*, *tuzsiz*, *tuzladi*). Qaysi qism ularni oʻzakdosh qilyapti? Qaysi qism har xil maʼnoli soʻz hosil qilyapti? kabi savollarga javob berish.

IV. *Bogʻbon*, *oʻroq*, *bogʻni*, *ishchidan* soʻzlarini tarkibiga koʻra tahlil qilish.

1) oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchadan, 2) oʻzak va shakl yasovchi qoʻshimchadan, 3) oʻzak va soʻz yasovchi, shakl yasovchi qoʻshimchalardan tuzilgan soʻzlar tanlash.

V. Tayanch soʻzlar asosida oʻqituvchi tavsiya etgan mavzuga oid kichik hikoya tuzish.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinflarda soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasalishini oʻrgatish oʻquvchilarning har bir soʻzga ongli munosabatda boʻlishlarini taʼminlaydi, soʻz tarkibi va uning yasalishi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

Boshlangʻich sinflar uchun ona tili oʻquv fanini oʻrganish, asosan, koʻnikkan, asosiy mashgʻuloti ona tili ekanligini anglagan, fikri, tushunchasi bogʻcha yoshidagi bolalik davriga nisbatan ancha rivojlangan, eng muhimi, psixologik jihatdan ona tiliga tayyor davr sanaladi.

“Taʼlimga psixologik tayyorgarlik deganda, - deb qayd qiladi E.Gʻoziyev, - bolaning obʻektiv va subʻektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi? Bu yoshdagi bolalarda idrok ancha oʻtkirlashadi, ona tiliga qiziquvchanligi oshadi, xayoli yorqinlashib, xotirasi chiniqadi, tafakkur doirasi

nisbatan kengayib, ijodiy fikrlashga moyillik ortadi.

Boshlangich sinf o'quvchilarida yaqqol obrazli xotira ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Bu yoshda o'quvchilar ko'rgan, kuzatgan narsalarini xotirada uzoq vaqt saqlay oladi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida ko'rsatmali vositalardan: diafilm, o'quv filmlari va audiovizual vositalardan unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

7-11 yoshli bolalar o'qiganini yoki eshitganlarini yetarli darajada tushunadi; o'z fikrlarini ona tilida izchillik bilan bayon qila oladi;

mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish singarilarni bimalol bajara oladi; o'rganganlari asosida umumlashma hosil qilishi mumkin.

O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan qaysi yo'nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O'quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'qituvchisidan mohirlikni, o'ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta xotiralanishga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo'ygan ekan, ma'lum so'z jamg'armasi bilan keladi. U oilada, bog'chada ko'p so'zlarni ishlatga-da, hali ularning ma'nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo'ladi. Mashhur psixolog V.A. Kruteskiyning ta'kidlashicha, bu davrda ular o'z oldilariga "Nima uchun bunday?" – "Nima uchun shu narsani o'rganish kerak?" degan savolni qo'ya oladigan bo'lishadi. Bu davrda ular "Nima uchun o'z ona tilimizni bilishimiz kerak?" degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o'rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlarni o'rganishlariga keng yo'l ochib berishini anglay boshlaydilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflardagi o'qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira,

tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idroklarining aniqligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o'rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so'zlarni tez qabul qiladilar. Ona tilini o'rganishga bo'lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o'quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o'tkirlashtiradi. Ba'zan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o'qituvchi dars mashg'ulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar idrokining yana bir xususiyati uning xilma-xilligi, yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his – tuyg'uga boyligidir. Shuning ushuni bu yoshda o'quvchilar rangli tasvirlarni, his - tuyg'u uyg'otadigan rasmlarni yoqtiradilar. Ammo bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, me'yoridan ortiq rangli rasmlar bolani charchatib qo'yadi va rasmlarga tez-tez murojaat etish uni zeriktiradi. Shuning uchun 2,-3,4-sinflar uchun “Ona tili” darsliklarini haddan ziyod rasmlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq emas.

O'quvchilarning o'qishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmash lozim. “Diqqat, -deb qayd qilinadi. “O'zbek tilining izohli lugati”da, – e'tiborini bir joyga to'plamoq, yig'moq, uni biror narsaga qaratmoq demakdir”.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmash lozim. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini muayan narsaga qaratib turishda qiynaladilar. Bolalar diqqatining barqarorligi, psixologlar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, miyada tormozlanish bilan qo'zg'alishning o'zaro nomuvofiq harakat qilishidir. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning ko'p hollarda tutulishi, to'xtab qolishi, so'zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi, yozishda ba'zan harf, bo'g'in, so'zlarning tushib qolishi mana shu fiziologik holat tufayli sodir bo'ladi.

Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o'z diqqatlarini muayan ob'ektga

qarata olmasligini ko'rsatadi. Bu ona tili mashg'ulotlarida ta'lim usullarini tez-tez o'zgartirib turishni, o'quv topshiriqlarining rang-barangligini ta'minlashni taqozo etadi. Chunki ta'lim usuli yoki o'quv topshirig'i o'zgartirilishi bilan o'quvchilarning unga munosabati ham o'zgaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatidagi bu xususiyat vaqti-vaqti bilan mashg'ulotning turini o'zgartirishini, norasmiy darslarning turli-tuman ko'rinishlaridan foydalanishni talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Xotira" deganda shaxsning o'z hayotiy tajribasini saqlab turishi va keyinchalik esga tushurishi tushuniladi. (7,306-,bet)

Psixologik adabiyotlarda xotiraning ikki turi: 1) so'z – mantiq xotirasi; 2) ko'rgazmali - harakatli xotira mavjudligi qayd qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy (so'z - mantiq) xotiradan ko'ra ko'rgazmali - harakatli xotira ancha rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ham ona tilini o'rganish jarayonida nazariy ma'lumotlarni o'zbek tilining imlo qoidalarini tushuntirish orqali o'rganishdan ko'ra sinf taxtasi yoki jadvalda yozilgan so'zlarni, rasmda aks etgan narsalarni tushunish ancha oson kechadi.

Ma'lumki, 8-9 yosh bolalarda xotira ancha mustahkam bo'ladi. Shu sababli bu yoshdagi bolalar o'rganilayotgan o'quv materiallining mohiyatini anglab yetishdan ko'ra, shu materialni iloji boricha so'zma-so'z yodlab olishga harakat qiladilar. V.A. Krutechkiyning fikricha, bu holning asosiy sababi, birinchidan, o'quvchi oldiga esda saqlab qolish kerakligi vazifa qilib qo'yilganda, hali u o'zidan konkret nima talab qilinayotganligini tushunmaydi, nimalarni so'zma-so'z esda olib qolish kerag-u, nimalarni eng umumiy tarzda esda saqlab qolish kerakligini ajrata olmaydi, ikkinchidan, birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari nutqini yaxshi egallamaganliklari tufayli matnning umumiy ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berishga qaraganda, uni so'zma-so'z aytib berish ular uchun osonroq tuyuladi.

Kichik maktab yoshida o'quvchilar o'z oldilariga o'quv maqsadi qo'yishda qiynaladilar. Shu boisdan ham ular faoliyatida ixtiyorsiz esda qoldirish muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi bilan bog'liq

ana shu xususiyatni hisobga olgan holda har bir soatlik ona tili darsidan ko`zlangan maqsadni o`quvchilar ongiga singdirishga alohida e`tibor qaratishga to`g`ri keladi. O`quvchi dars mashg`ulotidan ko`zlangan maqsadni tushunib yetsa, uni o`rganishga qiziqishi ortadi va o`quv materialini xotirada saqlab qolishi osonlashadi.

Xotira – tarbiya mahsuli. Shuning uchun o`qituvchi o`z o`quvchilariga materialni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib toptirishi, asta - sekinlik bilan mantiqiy - aqliy faoliyat usullariga (kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish) o`rgatib borishi lozim.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta`lim jarayonida o`zini-o`zi nazorat qilish; o`rganilgan materialni esga tushurish ; mashq qilishdan unumli foydalanishga to`g`ri keladi. Ona tili mashg`ulotlarining samaradorligi tilga olingan ana shu vositalar bilan chambarchas bog`langan. Talaffuzi va imlosi murakkab bo`lgan bir qator so`zlarni bir marta aytishi yoki yozib ko`rsatish bilan o`quvchi xotirasiga kiritish qiyin. Bu so`zlarning imlosini o`zlashtirish faqat qayta – qayta mashq mahsuli bo`lishi mumkin.

Bilishda xayolning ham katta ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Xayol deganda o`ylash, fikr yuritish jarayoni tushuniladi. (13, 310-bet) Xayolning tarkib topishi o`quv faoliyatining ta`siri va talabalari asosida amalga oshadi. Bolalarning dars jarayonidagi ishtiroki, mashg`ulotlarda bo`ladigan savol-javoblar, turli xildagi o`quv topshiriqlarini bajarish, ertak va hikoyalar o`qishi, televedeniya eshittirishlarini tamosha qilishi, kinofilmlarni ko`rishi, sayohatlarga borishi xayolni rivojlantirish vositalaridir.

Xayolning eng yuksak ko`rinishi ijodiy xayoldir. Ijodiy xayol surishga tayyor bo`lmagan o`quvchi bilimlarini o`zlashtirib olishda muayyan manbadan (o`qituvchining so`zi, darslik material) chetga chiqa olmaydi. Xayoli yetarli darajada taraqqiy topmagan o`quvchi o`quv materialini o`rganishi uchun ko`p kuch va vaqt sarflaydi, ammo yaxshi natijaga erishmaydi.

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili" o`quv fanining tabiati ko`proq bolalardan ijodiy xayolni talab etadi. Chunki berilgan rasmlar yoki biror bir mavzu asosida

ogʻzaki hamda yozma matn tuzishi, biror harakatni bildiradigan predmetning nomini yoki belgisini bildiradigan, uning son-sanogʻini, miqdorini bildiradigan soʻzlarni oʻzaro qiyoslab, oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashma va xulosalar chiqarish ijodiy xayol mahsuli hisoblanadi.

Taʼlimning samaradorligini koʻp jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bogʻliq. “Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T. Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi boʻlib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar oʻrtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalarining aks etish jarayonidir”.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan boʻlib, u maktabda oʻqish jarayonida takomillashib boradi. Boshlangʻich taʼlim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta oʻzgarishga uchraydi, yaʼni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. Oʻqishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Taʼlim taʼsiri bilan asta–sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki oʻrganilayotgan maʼlumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Maʼlumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon boʻlishini qayd qiladilar: 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur; 2) ijodiy tafakkur. Reproductive tafakkur oʻquvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, ogʻzaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida oʻquvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashgʻulotida oʻqituvchi oʻrni kelganda reproduktiv tafakkurga, oʻrni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish koʻradi.

Taʼlimning samaradorligi oʻquvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashgʻulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, soʻz va qoʻshimchalarni, gap qurilishlarini oʻzaro qiyoslash; ularning oʻxshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh soʻz va

qo'shimchalar ro'yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, avvalo, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ekti (faol ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi. O'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi. O'quvchining ta'lim jarayonining sub'ektiga aylanishi, o'qituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning ta'sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o'qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o'quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o'zaro chambarchas bog'langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta'lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e'tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko'zlagan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, "Shaxsning xususiyatini ifodalovchi so'zlar" mavzusini o'rganishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so'zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (chiroyli, xushmuomala, serjahl, bosiq, samimiy, o'jar v.h) so'zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 3-3 ta so'zni berib, bu so'zlar ro'yxatini mustaqil davom ettirish, bolalarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimga qiziqishlari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlardan qiziqishning ikki turi bizga ma'lum.

Qiziqishning birinchi ko'rinishi muayyan paytda, muayyan faoliyat jarayonida qo'zg'aladigan qiziqish bo'lsa, ikkinchisi, maqsad qiziqishi bo'lib,

tashqi ta'sir natijasida o'quvchi oldiga muayyan maqsadini qo'yib, uni shunga qiziqtirishdir. Har bir o'qituvchi o'z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. "Ona tili" faniga qiziqtirish dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko'rgazmali, audiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg'ulotlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantirish singari omillar bilan chambarchas bog'langan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda fanga qiziqish o'qituvchini sevishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshida bolalar uchun eng katta obro' bu o'qituvchi. Bola ona tili fanidan dars beradigan o'qituvchini sevsa, uning o'qitadigan fanini ham yoqtiradi. O'qituvchidan bezgan o'quvchi uning fanidan ham bezadi. Kichik yoshli maktabxon har qanday bilimni o'qituvchisi orqali idrok etadi. O'quvchilar o'qituvchining oliy himmat, kuyunchak, mehribon ekanligini, ularning har birini tushunish mahoratini hamda o'sib ulg'ayib, kamol topib borayotganligidan xursand bo'lish qobiliyatlarini, o'ta bilimli o'qituvchi ekanligini sezishlari kerak. Ana shundagina, o'quvchilarning sizga degan mehri tobora oshib boraveradi. Siz ularning eng yaqin mehribon kishisiga aylanasiz.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko'maklashadi:

1. Ona tili ta'limi mazmunini o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish. "Ona tili" darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadigan qo'shimcha o'quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to'g'ri tashkil etadi, o'qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi va h.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, "O'quvchi + o'quv topshirig'i + o'qituvchi" o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri belgilash mumkin emas. O'qituvchi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning yoshini bilish o'qituvchi va o'quvchi orasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishga keng imkoniyat yaratadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi. Topshiriqlar o'quvchilarning bilim sa'viyasiga mos bo'lsagina u samarali bo'ladi.

So'zning tub (lug'aviy) ma'nosini bildirib, ma'noli bo'laklarga bo'linmaydigan qism **o'zak** deyiladi: gulzor, bog'bon, chizg'ich, paxtakor. Ayrim darsliklarda bunday qism **asos** deb atalgan va unga quyidagicha ta'rif berilgan: "So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qismi asos deyiladi

Bir o'zakdan hosil bo'lgan so'zlar bir xil o'zakli (**o'zakdosh**) so'zlar deyiladi: bilim, bilimdon, bilag'on, biluvchi. Bunday so'zlar o'zaro sinonim ham bo'lishi mumkin: serhosil – hosildor, beg'ubor – g'uborsiz, tilchi – tilshunos. O'zakka qo'shilib, turli ma'nolarni ifodalaydigan qism qo'shimcha deyiladi: ishchi, bahola, olmazor, ishla, yozqi.

Qo'shimchalar so'z tarkibida qatnashmasligi ham mumkin, ular ayrim qo'llanmaydi, doim o'zakka qo'shilib keladi.

O'zak va qo'shimchalar so'zning ma'noli qismlari (morfemalar)dir.

Qo'shimchalar vazifasi va so'zga qo'shilib anglatadigan ma'nosiga ko'ra uch turli bo'ladi (Ayrim darsliklarda qo'shimchalar ikki turga bo'linadi: so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar

1. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir: *o't - o'tloq, arra - arrala, kuch - kuchli, hosil - serhosil*. So'z yasovchi qo'shimchalar unumli (*-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor*) va unumsiz (*-vul, -ag'on, -chil, -in, -a*) bo'lishi mumkin.

2. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar (ayrim darsliklarda "aloqa- munosabat shakli qo'shimchalari" deyiladi (19; 18) gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Bular 3 turli bo'ladi: 1) kelishik qo'shimchalari: *kitobni, uyqa, daftarni*. 2) egalik qo'shimchalari: *maktabimiz, ukam, bog'i*.

3) shaxs-son qo'shimchalari: *yedik, bordim, keldim, yurasan*.

3. SHakl yasovchi qo'shimchalar (ayrim darsliklarda «lug'aviy shakl qo'shimchalari" deyiladi. O'zakka qo'shilib, ma'noni bir oz o'zgartiradigan, qo'shimcha ma'no orttiradigan, lekin yangi so'z yasamaydigan qo'shimchalardir. Bular so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmaydi, balki ko'plik (*kitoblar*), kichraytirish (*uycha*), erkalash (*qizaloq*), chegaralash (*uygacha*), kamlik (*oqarinqiramoq*), kuchaytirish (*tepkilamoq, chayqa*), gumon (*kimdir*), daraja (*kattaroq*) kabi ma'nolarni ifodalaydi,

O'zbek tilida qo'shimchalarning o'zakka qo'shilish tartibi, odatda, quyidagicha: Asos + so'z yasovchi qo'shimchalar + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar +so'z o'zgartuvchi(sintaktik shakl yasovchi) qo'shimchalar: *kitob+xon+lar+ning*.

O'zbek tilida qo'shimchalarning o'zakka qo'shilish tartibi, odatda, quyidagicha: Asos + so'z yasovchi qo'shimchalar + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar + so'z o'zgartuvchi(sintaktik shakl yasovchi) qo'shimchalar: *kitob+xon+lar+ning*.

X U L O S A

3-sinf ona tili darslarida soʻz tarkibi va yasash usullarini oʻrganishda quyidagi jihatlariga eʼtibor qaratish lozim deb oʻylayman:

- oʻqituvchi bayonining oʻquvchilar ongiga toʻla yetib borishi;
- barcha oʻquvchilarning darsga faol va ongli munosabatda boʻlishi;
- dars jarayonida taʼlimning eng soʻnggi va interfaol usullaridan hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-har bir savol va tushunchaning oʻqituvchi tomonidan qisqa va tushunarli ifoda etilishi;

-oʻquvchilar ishtirokida xilma-xil mazmundagi oʻquvchilar nutqini oʻstirishga qaratilgan qiziqarli savol va topshiriqlar va mustaqil ishlarni tashkil etish.

“3-sinf ona tili darslarini tashkil etish metodikasi” mavzusidagi kurs ishi mazmun mohiyatiga koʻra quyidagi vazifalarni bajarishga yoʻnaltirildi.

-oʻrganilgan mavzu yuzasidan suhbat oʻtkazish, takrorlash orqali bilimlarni umumlashtirish;

-tushunchalarni mustaqil oʻzlashtirish;

-oʻquvchilarning nutq madaniyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, faolligini oshirish, bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirish;

-oʻquvchilarni oʻzaro ishonch, mustahkam eʼtiqod va jamoatchilik ruhida tarbiyalash;

-muhimni nomuhimdan ajratish, tegishli xulosa chiqarish.

Ona tili darslarini tashkil etishni mazmun jihatdan quyidagi guruhlariga boʻlib oʻrgandik.

1. Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oʻstirish yuzasidan qoʻshimcha ishlashga qaratilgan savol va topshiriqlar.

2. Oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini oʻstirishga, shuningdek, darsda oʻzlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar.

3. Oʻquvchilarning ona tili fanidan oʻzlashtirgan tushunchalarini rivojlantirishga qaratilgan savol-topshiriqlar.

4. O`quvchilarga tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlar, atamalar ma`nosini izohlashga qaratilgan savol-topshiriqlar.

5. O`quvchilarga ma`naviy-axloqiy tarbiya berish, dunyoqarashini tarbiyalashga qaratilgan savol-topshiriqlar.

6. O`quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan savol-topshiriqlar.

Shunday qilib, “3-sinf ona tili darslarini tashkil etish metodikasi” mavzusidagi kurs ishini bajarish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qiziqarli savol va topshiriqlar orqali mavzuning yashirin qirralarini ochishga harakat qilindi.

2. Savol va topshiriqlarning berilishi unga o`quvchini javob berishga da`vat qilinishi o`quvchilarning so`z boyligi, nutqini o`stirishga, rivojlantirishga ijobiy ma`noda xizmat qiladi.

3. 3-sinf o`quvchilarining so`z boyligi va nutqi ustida ishlashda savol va topshiriqlar yuzasidan olib borilgan ishlar muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

4. Savol va topshiriqlarni haddan ziyod ko`p va maydalashtirib berilishi o`quvchilarni zeriktirib qo`yishga sabab bo`lishi o`qituvchilarga eslatib o`tildi.

O`quvchi tilga muhabbat bog`laydi, uni qunt bilan o`rganishga dadil qadam tashlaydi. Topshiriq o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni mehnat faoliyati va mustaqil turmushga tayyorlashda muhim rol o`ynaydi. U topshiriq orqali o`quv qiyinchiliklarini sabot va matonat bilan yengishga, mustaqil ishlash va o`z bilimini mustaqil oshirib borishga o`rganadi.

Ona tili fanidan o`quv topshiriqlari 3-sinf o`quvchisining individual-psixik xususiyatlari: xotira, iroda, xarakter, qobiliyat kabilarni shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.-T.,«Ma`naviyat»,2008-176 b
- 2.Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat.- T.: «O`zbekiston»,1993-65 b
- 3.Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: «O`zbekiston»,1999-48 b
- 4.Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
- 5.Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi.- 2009 yil 5 dekabr
6. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi.-T.: O`zbekiston, 2010- 80 b.
- 7.Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b
- 8.O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b
- 9.Otaqulova G. “Vatanni sevmok iymondandir” Boshlang`ich ta`lim jurnali 2001-yil №2 mart-aprel 13-13-bet
10. Azimova “O`zbekistonim mening” Boshlang`ich ta`lim jurnali 2003-yil №15 mart-aprel 4-5-bet
- 11.Q.Rahimboyeva vatanim –yorug` maskanim Boshlang`ich ta`lim jurnali 2001-yil №1 mart-aprel 6-7-bet
- 12.Azimova Istiqbolim – istiqbolim Boshlang`ich ta`lim jurnali 2003-yil №5 mart-aprel 6-9-bet
- 13.N. Raximova “Vatan ichra vatan” Boshlang`ich ta`lim jurnali 2003-yil №4 mart-aprel 13-13-bet
- 14.I.Umarova Vatan borasidagi so`z boyliklarini oshirish Boshlang`ich ta`lim jurnali 2003-yil 14-15-bet
- 15.M.Xammitova Jahon tan olgan O`zbekiston ta`lim tizimi Xalq ta`limi 6-son 2000-yil 11-bet

- 16.A.Bekmurodov “Ta’lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi” xalq ta’limi 5-son 2000-yil 91-93- bet
- 17.O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim to`g`risida Nizom xalq ta`limi 4-son 1998-yil 11-14-bet
- 18.Q.Abdullayeva va boshqalar o`qish kitobi 3-sinf uchun darslik Toshkent “O`qituvchi” 1997-yil (26-bet)
- 19.Q.Abdullayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar” Boshlang`ich ta`lim jurnali 1999-yil 4-son (25-bet)
- 20.Qilichov A. “O`qitishning samarali usuli” Boshlang`ich ta`lim jurnali 1995-yil.
- 21.Ashrapova. Hoshimov A. O`qish kitobi 3-sinf uchun o`qituvchi nashriyoti 2000-yil (16-bet)
- 22.E.Shojaidova S.Matjonov va boshqalar “O`qish kitobi 3-sinf uchun darslik” Toshkent “o`qituvchi” 2001-yil (336-bet).
23. S.Fuzailov va boshqalar.Ona tili 1- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
24. S.Fuzailov va boshqalar.Ona tili 3- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
25. S.Fuzailov va boshqalar.Ona tili 3- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
- 26.G`ulomova X. , Yo`ldosheva Sh., “ Boshlang`ich sinflrda ona tili o`qitish metodikasi ” ma`ruza matni , Toshkent 2002
27. G`afforova T., va boshqalar 1-sinfda “ Ona tili ” darsligi T., 2003
28. Qosimova K va boshqalar “ Ona tili ” 3- sinf uchun T., “O`qituvchi ” 1997 yil
29. Fuzailov S. , Xudoberganova M., “ Ona tili ” 3- sinf uchun T., “O`qituvchi ”1999yil
30. Ikromova R. va boshqalar “ Ona tili ” 4- sinf uchun T., “ O`qituchi ”1999 yil
31. G`ulomova X., Yo`ldasheva Sh . “ Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi ” ma`ruza matnlari T., 2006 yil